



Principles and methods of comparative research of phraseological units

Azimjon AKHMEDOV¹

Andijan State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2025
Received in revised form
10 April 2025
Accepted 2 May 2025
Available online
25 June 2025

Keywords:

phraseological units,
comparative study,
semantic field,
synchronic analysis,
diachronic analysis,
cross-linguistic comparison,
cultural context,
structural analysis,
idioms,
comparative linguistics.

ABSTRACT

This article examines the main principles and methods of comparative study of phraseological units. Through cross-linguistic analysis, the semantic, structural, and cultural features of idiomatic expressions are explored. The study highlights approaches such as synchronic and diachronic analysis, cross-linguistic comparison, cultural-contextual interpretation, semantic field analysis, and structural analysis. Views of leading scholars in world phraseology are discussed, emphasizing the importance of distinguishing between universal and national features in the study of phraseological systems.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss6/S-pp340-347>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Frazeologik birliklar chog'ishtirma tadqiqining tamoyil va metodlari

Kalit so'zlar:

frazeologik birliklar,
chog'ishtirma tadqiq,
semantik maydon,
sinxron tahlil,
diaxron tahlil,
tillararo qiyoslash,
madaniy kontekst,
struktur tahlil,
frazeologizm,
qiyosiy lingvistika.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada frazeologik birliklarni chog'ishtirma tadqiq etishning asosiy tamoyil va metodlari yoritiladi. Tadqiqotda turli tillardagi frazeologizmlarni qiyosiy tahlil qilish orqali ularning semantik, struktur va madaniy xususiyatlari aniqlanadi. Frazeologiyani sinxron va diaxron tahlili, tillararo qiyoslash, madaniy kontekstda izohlash, semantik maydon tahlili hamda struktur yondashuv kabi tamoyillar asosida ilmiy yondashuvlar umumlashtiriladi. Shuningdek, jahon frazeologiya maktabi olimlarining qarashlari qiyosiy jihatdan ko'rib chiqilib, frazeologik birliklarni o'rganishda universal va milliy xususiyatlarni farqlash imkoniyatlari tahlil qilinadi.

¹ Teacher, Andijan State Institute of Foreign Languages.

Принципы и методы сопоставительного исследования фразеологических единиц

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:
фразеологические
единицы,
сопоставительное
исследование,
семантическое поле,
синхронный анализ,
диахронный анализ,
межъязыковое
сопоставление,
культурный контекст,
структурный анализ,
идиомы,
сравнительное
языкознание.

В данной статье рассматриваются основные принципы и методы сопоставительного исследования фразеологических единиц. Путём межъязыкового анализа выявляются их семантические, структурные и культурные особенности. В исследовании обобщены такие подходы, как синхронный и диахронный анализ, межъязыковое сопоставление, интерпретация в культурном контексте, анализ семантических полей и структурный подход. Также обсуждаются взгляды ведущих учёных в области мировой фразеологии, подчёркивается значение различения универсальных и национально-специфических черт в изучении фразеологических систем.

Idiomalar, maqollar va birikmalar kabi frazeologik birliklarni (FB) qiyosiy maydonda tahlil qilib o'rganish ushbu iboralarni turli tillar yoki dialektlarda tekshirib chiqishni o'z ichiga oladi. Ushbu qiyosiy tahlil jarayonida qo'llaniladigan tamoyillar va usullar ko'p qirrali bo'lib, lingvistik, madaniy va kognitiv yondashuvlarni talab qiladi va qiyosiy tilshunoslikda ushbularni jamlaydi, birlashtiradi. Quyida ushbu sohada muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotnomalar bilan bir qatorda ba'zi asosiy tamoyillar, usullar va misollarni keltirib o'tamiz:

Frazeologik birliklarni o'rganishda **sinxron** va **diaxron** tahlil tamoyillari tilshunoslikda asosiy metodlardan hisoblanadi. Bu yondashuvlar ichida professor **V.V. Vinogradov**ning qarashlari alohida ahamiyatga ega. U rus frazeologiyasining asoschilaridan bo'lib, frazeologik birliklarning **tuzilishi, semantikasi va taraqqiyotini** ikki nuqtai nazardan o'rganan:

1. Sinxron tahlil – tilning hozirgi davrdagi holatini, ya'ni frazeologik birliklarning zamonaviy semantikasi va grammatik funksiyasini tekshiradi. Vinogradovga ko'ra, bunda frazeologik birliklar uch turga bo'linadi:

1. **Frazeologik birlashmalar** (erkinroq bog'langan birliklar)
2. **Frazeologik birikmalar** (qisman barqaror ma'noga ega)
3. **Frazeologik qo'shilmalar** (ma'nosi butunlay ko'chma, erkin so'zlardan farqli)

Sinxron tahlil frazeologik birliklarni ma'lum bir vaqt oralig'ida tekshiradi, ularning joriy ya'ni aynan hozirgi davrda ishlatilishi va tuzilishini tahlil qiladi.

a) "It's raining cats and dogs": Bu ibora kuchli yomg'ir yog'ayotganini bildiradi. Hozirda ushbu frazeologik birlikdan foydalanish keng tarqalgan bo'lib, ko'plab ingliz tilida so'zlashuvchi insonlar tomonidan keng ko'lamda foydalaniladi va tushuniladi.

b) "Every dog has its day": Bu ibora har bir inson hayoti davomida bir marotaba bo'lsa ham muvaffaqiyat yoki omadli lahzaga ega bo'lishini anglatadi.

c) "Curiosity killed the cat": Bu ibora so'zma-so'z tarjima qilinganda "Qiziqish mushukni o'ldirdi" deb tarjima qilinadi va juda ham qiziquvchan bo'lishdan hamda boshqalarni ishlariga aralashaverishdan ogohlantiradi.

d) "Let the cat out of the bag": Bu ibora bo'lsa so'zma-so'z tarjimada "Mushukni sumkadan chiqarish" degan ma'noni anglatadi va (bir sirni ochish) ma'nosida qo'llaniladi.

e) **“Hold your horses”**: Ot haqidagi ushbu ibora soʻzma-soʻz tarjimada “Otlaringizni ushlab turing” degan maʼnoni bildiradi, amaliyotda boʻlsa bu ibora kutish yoki sabr qilish maʼnosini anglatadi.

f) **“Straight from the horse’s mouth”**: Ushbu ibora boʻlsa soʻzma-soʻz tarjimada “Otning ogʻzidan toʻgʻri” maʼnosini isteʼfoda etadi va istelohda manbadan toʻgʻridan-toʻgʻri keladigan maʼlumotga nisbatan qoʻllaniladi.

Diaxron tahlil – frazeologik birliklarning tarixiy shakllanishi, oʻzgarishi, xalq nutqidagi ildizlari va adabiy tilga kirib kelishini oʻrganadi. Vinogradov bu yoʻnalishda frazeologizmlarning **etimologiyasi, tarixiy semantik siljishi va adabiy manbalardagi rivojini** tahlil qilgan.

Vinogradovning asosiy gʻoyalari

- Frazeologik birliklar faqat hozirgi tildagi holatini emas, balki **tarixiy ildizlari** orqali toʻliq anglash mumkin.

- Sinxron va diaxron yondashuvlar **bir-birini toʻldiradi**: hozirgi semantik tahlil tarixiy asosdan ajratilmasligi kerak.

- Frazeologik tizim tilning **dinamik hodisasi** boʻlib, uni tushunishda tarixiy qatlamlarni aniqlash muhim.

Shuningdek, **diaxron tahlil** vaqt oʻtishi bilan frazeologik birliklarning tarixiy rivojlanishi va evolyutsion bosqichlarini koʻrib chiqadi.

“It’s raining cats and dogs”:

a) Bu ibora 17-asrda kelib chiqqan deb ishoniladi. Bir nazariya shundan iboratki, bu kuchli yomgʻir koʻchalarda oʻlik hayvonlarni yuvishini anglatadi.

b) Rivojlanishi jihatidan bu ibora shiddatli yomgʻirning metaforik maʼnosini saqlab qolgan, garchi uning tom maʼnodagi tushunchasi umumiy tilshunoslikda amaliyotdan qolgan boʻlsa ham.

“Curiosity killed the cat”:

a) Kelib chiqishi: Bu ibora ingliz dramaturgi Ben Jonsonning “Every Man in His Humour” (1598) pyesasida topilgan “Care killed the cat”, (Mushukni gʻamxoʻrlik bilan oʻldirgan) degan qadimgi maqoldan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. Keyinchalik “care” (gʻamxoʻrlik) soʻzi “curiosity” (qiziqish) bilan almashtirilgan.

b) Evolyutsiyasi: “curiosity” (qiziqish)ga almashtirilishi 19-asr oxiri yoki 20-asrning boshlarida sodir boʻlib, iborani hozirgi shakliga va ogohlantiruvchi maʼnosiga oʻzgartirilgan.

“Straight from the horse’s mouth”:

a) Kelib chiqishi: Bu ibora 20-asrning boshlarida ot poygalari jarayonidan kirib kelgan deb taxmin qilinadi, bu yerda poyga otining holati haqidagi maʼlumotlar toʻgʻridan-toʻgʻri otga eng yaqin boʻlgan shaxslardan olingan boʻlsa, eng ishonchli boʻlar edi.

b) Evolyutsiya: Uning maʼnosi toʻgʻridan-toʻgʻri ishonchli manbadan olingan har qanday maʼlumotni oʻz ichiga olgan holda kengaytirildi va hozirda amaliyotga tatbiq etildi.

2. Tillararo qiyoslash:

Frazeologik birliklarni **tillararo qiyoslash** tilshunoslikda muhim metodlardan biri boʻlib, turli tillardagi frazeologizmlarning **semantik, strukturaviy va madaniy** xususiyatlarini taqqoslashga xizmat qiladi. Bu yoʻnalishda bir qator jahon frazeologiya professorlari ilmiy qarashlari bilan mashhur:

1. **A.V. Kunin (Rossiya)** – frazeologiyani **mustaqil lingvistik tizim** sifatida qaraydi va ingliz hamda rus tilidagi frazeologizmlarni qiyosiy tahlil qilgan. U tilshunoslikda “xalqaro frazeologiya” konsepsiyasini ishlab chiqqan.

2. **Wolfgang Fleischer (Germaniya)** – tillararo qiyoslashda frazeologik birliklarning **struktur-semantik modellari** muhimligini ta’kidlagan. Uning ishlari nemis va boshqa Yevropa tillari o’rtasidagi idiomlarni solishtirishga bag’ishlangan.

3. **Harald Burger (Shveysariya, Germaniya)** – frazeologiyani **madaniyatlararo fenomen** sifatida ko’rib, turli tillardagi idiomlarning o’xshashligi va farqlarini izohlagan.

4. **Dobrovol’skij, D. & Piirainen, E. (Germaniya, Finlyandiya)** – frazeologik birliklarni kognitiv-lingvistik yondashuvda tillararo qiyoslash orqali tadqiq qilgan. Ularning fikricha, idiomlar ko’pincha **umuminsoniy metaforalar** asosida quriladi, lekin milliy-madaniy xususiyatlarni ham o’zida saqlaydi.

5. **Cowie, A. P. (Angliya)** – ingliz tili frazeologiyasida tillararo qiyoslash metodini nazariy va amaliy nuqtai nazardan rivojlantirgan, frazeologik lug’atchilikda bu usulni keng qo’llagan.

6. **Raymond Gibbs (AQSh)** – idiomlarni **kognitiv psixolingvistika** asosida o’rgangan va ularning qiyosiy tahlilini **kognitiv metafora nazariyasi** bilan bog’lagan.

7. **Anna Wierzbicka (Avstraliya)** – “Natural Semantic Metalanguage” (NSM) konsepsiyasi orqali frazeologizmlarni turli tillarda qiyosiy semantik tahlil qilish metodini ishlab chiqqan.

8. **Moon, R. (Angliya)** – frazeologizmlarni **diskurs va madaniyat** kontekstida tadqiq etib, ingliz tili va boshqa tillar misolida qiyosiy tahlillarni amalga oshirgan.

Frazeologiyada tillararo taqqoslash turli tillarda o’xshash tushunchalar yoki hayvonlar ishtirokidagi iboralarni qanday ishlatishini va ular madaniy nozik xususiyatlarni va umumiy inson tajribasini qanday aks ettirishini o’rganishni o’z ichiga oladi. Bu yerda biz ingliz tilidagi “it”, “mushuk” va “ot” kabi iboralarni boshqa tillardagi o’xshashlari bilan solishtiramiz.

“It” ga oid FB larni ko’rib chiqamiz.

Inglizcha: “Every dog has its day” (Har bir itning o’z kuni bor) – (Har kimning o’z muvaffaqiyat lahzalari bo’ladi)

Fransuzcha: “À chaque chien son jour” (Har bir itga o’z kuni)

Italyancha: “Ogni cane ha il suo giorno” (Har bir itning o’z kuni bor)

“Mushuk” ga oid FB larni ko’rib chiqamiz.

Inglizcha: “Curiosity killed the cat” (Qiziqish mushukni o’ldirdi) – (Haddan tashqari qiziquvchanlikdan ogohlantirish)

Ispancha: “La curiosidad mató al gato” (Qiziqish mushukni o’ldirdi)

Fransuzcha: “La curiosité est un vilain défaut” (qiziqish – bu yomon kamchilik)

Nemis: “Neugier ist der Katze Tod” (Qiziqish – mushukning o’limi)

“Ot” ga oid FB larni ko’rib chiqamiz.

English: “Hold your horses” (Otlaringizni ushlab turing) – (Sabr qiling)

French: “Ne t’emballe pas” (O’zingizni yo’qotib qo’yadigan darajada xursand bo’lmang)

Spanish: “No te precipites” (shoshmang)

German: “Immer mit der Ruhe” (Har doim xotirjamlik bilan)

3. Madaniy kontekstda tahlil qilish:

Frazeologik birliklarni **madaniy kontekstda tahlil qilish** – jahon frazeologiya tadqiqotlarida keng qo’llaniladigan metod bo’lib, idioma va barqaror birikmalarni faqat lingvistik tuzilma sifatida emas, balki **xalqning mentaliteti, urf-odatlarini, diniy qarashlari va tarixiy tajribasi** bilan bog’liq holda o’rganishga qaratilgan.

Jahon tilshunos olimlarining madaniy kontekstda tahlil qilish bo'yicha qarashlari ham anchagina qiziqarli:

1. **Anna Wierzbicka (Avstraliya)** – “Natural Semantic Metalanguage” (NSM) nazariyasi asosida idiomlarni **universal insoniy tushunchalar** va **madaniyatga xos semantik konfiguratsiyalar** orqali tahlil qilgan (*Semantics, Culture, and Cognition*, 1992).

2. **Elisabeth Piirainen (Germaniya)** – frazeologik birliklarning **madaniy kodlarini** tadqiq qilgan, idiomlarning xalq og'zaki ijodida va zamonaviy til amaliyotida madaniy belgilarni qanday aks ettirishini tahlil qilgan.

3. **Dmitrij Dobrovol'skij (Germaniya)** – idiomlarni **kognitiv va madaniy** nuqtai nazardan o'rgangan, ularning konseptual asoslari ko'pincha universal bo'lsa-da, **madaniy jihatdan o'ziga xos** elementlarga ega ekanini ta'kidlagan.

4. **Harald Burger (Shveysariya)** – frazeologiyani **madaniyatlararo kommunikatsiya vositasi** sifatida qaragan va idiomlarning milliy rang-barangligini tahlil qilgan (*Phraseologie*, 2007).

5. **Wolfgang Mieder (AQSh)** – maqollar va idiomlarni **madaniyatning aks-sadosi** sifatida talqin etgan va paremiologiya orqali xalqning tarixiy-madaniy merosini o'rgangan (*Proverbs: A Handbook*, 2004).

6. **Raymond Gibbs (AQSh)** – frazeologik birliklarni **psixolingvistika va madaniy kognitsiya** doirasida izohlagan, metaforik fikrlashda madaniyatning rolini ko'rsatgan (*The Poetics of Mind*, 1994).

7. **Ruth Wodak (Avstriya)** – frazeologizmlarni **diskurs va madaniyat** kontekstida tahlil qilib, ular ijtimoiy identitet va ideologiyani shakllantirishda qanday ishlashini ko'rsatgan.

Frazeologik birliklarni madaniy maydonda tahlil qilish, ularni madaniy ahamiyati va kelib chiqishini tushunish va chuqur anglab yetishga olib keladi, chunki ular ko'pincha jamiyatning qadriyatlari, e'tiqodlari va tarixini aks ettiradi. Shuningdek, frazeologiyada madaniy kontekstni tushunish tilning ijtimoiy qadriyatlar, e'tiqod va tajribalarni qanday aks ettirishi va shakllantirishini ham ochib beradi. Bu erda biz turli tillardagi “it”, “mushuk” va “ot” kabi iboralar ortidagi madaniy bo'lgan nozik xususiyatlarni keltirib o'tamiz.

A. Inglizcha: “Dog days of summer” (Yozning eng issiq kunlari)

Madaniy kontekstda bu ibora qadimgi yunonlar va rimliklardan kelib chiqqan bo'lib, ular yozning eng issiq kunlarini Sirius, it yulduzining ko'tarilishi bilan bog'lashgan. Bu yulduzlar va fasllarga moslashgan qishloq xo'jaligi jamiyatini aks ettiradi.

B. O'zbekcha: “It hurar karvon o'tar”

Madaniy kontekstda bu ibora qadimgi Movarounnahr diyorlaridan kelib chiqqan bo'lib, bu diyord Buyuk Ipak Yo'lining qaynoq nuqtasi bo'lgan va bu joylardan son sanoqsiz karvonlar o'tgan. Tabiiy ravishda it hurgani bilan karvon bir joyda turib qolmaydi, shuning uchun bu ibora ham amaliyotga keng tatbiq qilingan bo'lib, o'ziniki bo'lmagan ishga aralashgan odamlarning gaplariga quloq solmasdan ya'ni, maqsaddan chalg'imasdan olg'a intilish kerakligini anglatadi.

C. Inglizcha: “Cat's pajamas” (ajoyib yoki zamonaviy narsa)

Madaniy kontekstda bu ibora 1920-yillarda Amerika Qo'shma Shtatlarida jazz davrida, jo'shqinlik va ijtimoiy o'zgarishlar davrida paydo bo'lgan. Bu ijod davrini va tildan ko'ngilxushlik yo'lida foydalanishni aks ettiradi.

D. O'zbekcha: “Mulla mushuk” iborasi

Madaniy kontekstda bu ibora qadimdan o'zbek xalqi orasida ommalashgan bo'lib, mushuk yuvosh va muloyim hayvonligi yuzasidandir. Shuning uchun odobli, yuvosh, muomalalik shaxslarga nisbatan bu iborani ishlatish keng tarqalgan.

E. Inglizcha: "Don't look a gift horse in the mouth" (sovg'ani tanqid qilmang)

Madaniy kontekstda ushbu ibora o'tning tishlarini tekshirish orqali uning yoshi va sog'lig'ini baholash amaliyotida ildiz otgan. Bu agrar jamiyatlarni aks ettiradi, bu erda otlar qimmatli boylik va sovg'a ekanligi nazarda tutilib faqatgina tekshirish va kuzatishdan ko'ra qadrliroq bo'lishi kerak.

F. O'zbekcha: "Yaxshi otga bir qamchi – yomon otga ming qamchi" iborasi

Madaniy kontekstda bizga ma'lumki, otlar asov, qaysar hayvon hayvon hisoblanadi va uni bo'ysundirish uchun ko'p kaltaklash kerak bo'ladi. Shundan kelib chiqib, qaysar, gapuqmas shaxslarga nisbatan ushbu iborani amaliyotda qo'llashlik o'zbek xalqi orasida urfga aylangan.

4. Tuzilishi jihatidan tahlil qilish:

Frazeologik birliklarni **tuzilishi jihatidan tahlil qilish** frazeologiya fanida muhim metodlardan biri bo'lib, barqaror birikmalarni **grammatik qurilishi, sintaktik shakli va leksik tarkibi** asosida o'rganishga qaratilgan. Jahon frazeologiya maktabida bir nechta mashhur olimlar bu tamoyilni turli yo'nalishlarda rivojlantirgan.

1. **Charles Bally (Shveysariya)** – frazeologiyani asoschilaridan biri sifatida barqaror birikmalarni **struktur-semantik birlik** sifatida qaragan. U frazeologizmlarni oddiy so'z birikmalaridan ajratish uchun ularning **formal va semantik yaxlitligini** asosiy mezon sifatida ko'rsatgan.

2. **A. V. Kunin (Rossiya)** – frazeologiyani mustaqil fan sifatida qarab, frazeologik birliklarning **struktur turlarini** (idiom, phraseomatic units, collocations) aniqlashga katta hissa qo'shgan. Uning tasnifi hozirgacha ko'plab tadqiqotlarda qo'llanadi.

3. **Wolfgang Fleischer (Germaniya)** – nemis tili frazeologiyasida frazeologik birliklarning **grammatik va morfologik tuzilishini** tizimli ravishda o'rgangan. U frazeologizmlarning **model va shablonlarini** tavsiflab bergan.

4. **Harald Burger (Shveysariya)** – frazeologiyani tuzilishiga ko'ra **idiomatik birliklar, frazeologik qotishmalar** va **barqaror birikmalarga** ajratgan.

5. **Ruth Gläser (Germaniya)** – frazeologik birliklarning **janrga moslashuvini** va **uslubiy imkoniyatlarini** struktur nuqtai nazardan tadqiq qilgan.

6. **Cowie, A. P. (Angliya)** – ingliz tili frazeologiyasida **lug'atshunoslik va korpus tahliliga** asoslanib, frazeologizmlarning struktur xususiyatlarini aniqlashga katta e'tibor qaratgan.

7. **Raymond Gibbs (AQSh)** – idiomlarni **psixolingvistika** asosida o'rganib, ularning tuzilishi odam ongida qanday qayta ishlanishini izohlagan.

8. **Dobrovol'skij & Piirainen (Germaniya, Finlyandiya)** – frazeologizmlarning **struktur-semantik modellarini** kognitiv va madaniy nuqtai nazardan tahlil qilgan.

Ushbu qismda frazeologik birliklarning grammatik xususiyatlarini tushunish uchun ularning sintaktik (gap bo'laklari, so'z birikmalari...) va morfologik (o'zak, qo'shimcha...) tuzilishini tekshiriladi va tahlil qilinadi.

Ibora: "You cannot teach an old dog new trick"

"Siz eski itga yangi fokuslarni o'rgata olmaysiz"

Tuzilishi: ega + inkor yordamchi fe'li + fe'l + to'ldiruvchi

Tahlil:

Ega: “Siz” (olmosh)

Yordamchi fe’l: “qila qilmoq” (inkor modal fe’l)

Fe’l: “o’rgatmoq” (infinitiv)

To’ldiruvchi: “qari it” (otlashgan ibora) + “yangi fokuslar” (otlashgan ibora)

Tuzilishi: tuzilma o’rganish va moslashish haqida umumiy haqiqatni bildiradi, inkor modal fe’li “qila olmaydi” moslashgan odatlarni o’zgartirish qiyinligini anglatadi.

5. Semantik maydon tahlili:

Frazeologik birliklarni **semantik maydon tahlili** asosida o’rganish – idiom va barqaror birikmalarni ma’lum **konseptual soha yoki semantik guruh** doirasida tadqiq qilish metodidir. Bu tamoyil frazeologiyani faqat struktur jihatdan emas, balki **mazmuniiy tizim** sifatida ko’rishga imkon beradi. Jahon frazeologiya professorlari bu masalaga turli nazariy asoslarda yondashgan.

1. **Jost Trier (Germaniya)** – **semantik maydon nazariyasi** asoschisi. U tilning lug’at boyligini bir-biriga bog’liq **maydonlar tizimi** sifatida ko’rgan. Keyinchalik bu nazariya frazeologiyada qo’llanilib, idiomlar **tematik-semantik guruhlariga** ajratila boshlandi.

2. **Stephen Ullmann (Buyuk Britaniya)** – frazeologik birliklarni **semantik strukturasi va maydonlar** orqali izohlab, ular xalqning konseptual dunyoqarashi bilan bevosita bog’liq ekanini ta’kidlagan.

3. **A.V. Kunin (Rossiya)** – ingliz tili frazeologiyasida idiomlarni **tematik-semantik tarmoqlarga** ajratib, ularning mazmuniiy aloqadorliklarini ko’rsatgan.

4. **Harald Burger (Shveysariya)** – frazeologizmlarni **tematik-semantik maydonlar** asosida o’rganib, “inson faoliyati”, “tabiat”, “ijtimoiy hayot” kabi guruhlariga ajratgan.

5. **Wolfgang Fleischer (Germaniya)** – semantik maydon tahlilida **frazeologizmlarning leksik va ma’no aloqalarini** tizimlashtirgan.

6. **Elisabeth Piirainen (Germaniya)** – idiomlarning **madaniy semantik maydonlarini** o’rganib, ular turli xalqlarda qanday konseptual umumiylik va farqlarga ega ekanini tahlil qilgan.

7. **Anna Wierzbicka (Avstraliya)** – NSM nazariyasi doirasida idiomlarni **semantik maydonlar** orqali talqin qilib, umumiy insoniy konseptlarni ajratib ko’rsatgan.

8. **Raymond Gibbs (AQSh)** – frazeologik birliklarni **kognitiv semantika** asosida o’rganib, ularning metaforik maydonlarga bog’liqligini izohlagan.

Ma’no jihatidan frazeologik birliklarni tahlil qilish, jumladan, to’g’ridan-to’g’ri (adabiy) va tuzilishiga oid ma’nolari, konnotatsiyalar (ko’chma ma’no) va pragmatikani tahlil qilish semantik maydonda amalga oshiriladi.

A) Ibora: “Every dog has its day”

To’g’ridan-to’g’ri ma’no: Har bir itning yaxshi yoki maxsus kuni bo’ladi.

Majoziy ma’no: Har bir inson hayotining bir nuqtasida muvaffaqiyat yoki omadni boshdan kechiradi.

Semantik ya’ni ma’no jihatidan komponentlari:

“It”: ko’pincha kambag’al yoki odatda muvaffaqiyatga erisha olmaydigan shaxs sifatida ko’rilgan shaxsni ramziy siymosi.

“Kun”: imkoniyat yoki muvaffaqiyat vaqtini ifodalaydi.

Interpretatsiya, ya’ni amaliyotda qo’llanilishi shundan iboratki, bu iborada itdan odamlar, ayniqsa, odatda diqqat markazda bo’lmaganlar uchun metafora sifatida foydalaniladi, bu esa har kimning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatiga ega ekanligini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. **Vinogradov, V. V. (1944).** *Osnovnye tipy frazeologicheskikh edinit russkogo yazyka*. Moskva: Nauka.
2. **Vinogradov, V. V. (1953).** *Russkiy yazyk. Grammaticheskoe uchenie o slove*. Moskva.
3. **Telia, V. N. (1996).** *Russkaya frazeologiya: Semanticheskii, pragmaticheskii i lingvokul'turologicheskii aspekty*. Moskva.
4. **Shansky, N. M. (1969).** *Frazeologiya sovremennogo russkogo yazyka*. Moskva.
5. **Mokienko, V. M. (1989).** *Slavyanskaya frazeologiya*. Leningrad.
6. **Kunin, A. V. (1970).** *Angliyskaya frazeologiya*. Moskva.
7. **Dobrovol'skii, D., & Piirainen, E. (2005).** *Figurative Language: Cross-cultural and Cross-linguistic Perspectives*. Elsevier.
8. **Burger, H. (2007).** *Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutschen*. Berlin: Erich Schmidt.
9. **Gläser, R. (1998).** *The Stylistic Potential of Phraseological Units in the Light of Genre Analysis*. In: *Phraseology: Theory, Analysis, and Applications*. Oxford.
10. **Cowie, A. P. (1998).** *Phraseology: Theory, Analysis, and Applications*. Oxford: Clarendon Press.
11. **Kunin, A. V. (1970).** *Angliyskaya frazeologiya*. Moskva.
12. **Burger, H. (2007).** *Phraseologie: Eine Einführung am Beispiel des Deutschen*. Berlin: Erich Schmidt.
13. **Dobrovol'skij, D. & Piirainen, E. (2005).** *Figurative Language: Cross-cultural and Cross-linguistic Perspectives*. Elsevier.
14. **Fleischer, W. (1997).** *Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache*. Leipzig.
15. **Cowie, A. P. (1998).** *Phraseology: Theory, Analysis, and Applications*. Oxford University Press.
16. **Gibbs, R. W. (1994).** *The Poetics of Mind: Figurative Thought, Language, and Understanding*. Cambridge University Press.
17. **Wierzbicka, A. (1992).** *Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations*. Oxford University Press.
18. **Moon, R. (1998).** *Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-based Approach*. Oxford University Press.
19. **Gläser, R. (1986).** *Phraseologie der englischen Sprache*. Tübingen.
20. **Mieder, W. (2004).** *Proverbs: A Handbook*. Greenwood.